



UDK: 94(575.1)

Zaxriddinbobir XAYDAROV,

Dotsent, tarix fanlari nomzodi, Namangan davlat pedagogika instituti, Namangan, O'zbekiston

E-mail: zahriddinbobirhajdarov@gmail.com ORCID: 0009-0002-2023-3672

NamDU professori A.Rasulov taqrizi asosida

NAMANGANDA 1916-YIL QO'ZG'OLONI: TARIXIY TAHLIL VA SABOQLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada 1916-yilda Turkiston o'lkasida yuz bergan yirik xalq qo'zg'oloni, xususan Namangan uyezdi misolida, kompleks tarixiy tahlil asosida o'rganiladi. Tadqiqotda qo'zg'olonning yuzaga kelish omillari – Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati, iqtisodiy bosim, ijtimoiy tengsizlik hamda mahalliy aholining majburiy mardikorlikka jalb etilishi kabi omillar tizimli ravishda yoritilgan. Shuningdek, qo'zg'olonning borishi, uning hududiy ko'lami, ijtimoiy tarkibi va harakatlantiruvchi kuchlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Maqolada tarixiy manbalar va mavjud ilmiy adabiyotlar asosida voqealarning rivojlanish dinamikasi ochib beriladi hamda qo'zg'olonning oqibatlari, uning milliy ozodlik harakatlari tarixidagi o'rni baholanadi.

Kalit so'zlar: mustamlakachilik siyosati, milliy ozodlik harakati, 1916-yil qo'zg'oloni, Namangan qo'zg'oloni, Turkiston o'lkasi, Rossiya imperiyasi, mardikorlik siyosati, majburiy safarbarlik, xalq noroziligi, ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar

ВОССТАНИЕ 1916 ГОДА В НАМАНГАНЕ: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И УРОКИ

Аннотация

В данной статье на основе комплексного исторического анализа рассматривается восстание 1916 года в Туркестане на примере Наманганского уезда. Особое внимание уделяется причинам восстания, среди которых колониальная политика Российской империи, экономическое давление, социальное неравенство и принудительная мобилизация местного населения на тыловые работы. В работе анализируются ход событий, география восстания, социальный состав участников и движущие силы народного протеста. На основе исторических источников и научной литературы раскрывается динамика развития восстания, его последствия и значение в истории национально-освободительного движения. Результаты исследования показывают, что события

Ключевые слова: колониальная политика, национально-освободительное движение, восстание 1916 года, Наманганское восстание, Туркестанский край, Российская империя, мобилизация, принудительный труд, народное недовольство, социально-политические противоречия.

THE 1916 NAMANGAN UPRISING: HISTORICAL ANALYSIS AND LESSONS

Annotation

This article provides a comprehensive historical analysis of the 1916 uprising in Turkestan, with a particular focus on the Namangan district. The study examines the main causes of the uprising, including the colonial policy of the Russian Empire, economic exploitation, social inequality, and the forced mobilization of the local population for labor service. It also analyzes the course of events, geographical scope, social composition of participants, and driving forces behind the movement. Based on historical sources and scholarly literature, the article reveals the dynamics of the uprising and evaluates its consequences and significance within the broader context of national liberation movements.

Keywords: colonial policy, national liberation movement, 1916 uprising, Namangan uprising, Turkestan region, Russian Empire, forced labor mobilization, conscription policy, public unrest, socio-political conflicts.

Kirish. O'zbek xalqi tarixida milliy ozodlik harakatlari muhim o'rin egallaydi. Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati davrida yuzaga kelgan qo'zg'olonlar xalqning erkinlik va mustaqillikka bo'lgan intilishining yorqin ifodasi bo'ldi. 1916-yil qo'zg'oloni ham ana shunday harakatlardan biri bo'lib, uning ildizlari mustamlakachilik siyosati, iqtisodiy tanglik va ijtimoiy adolatsizlik bilan bog'liqdir. Mazkur maqolada Namangan uyezdida yuz bergan qo'zg'olonning sabablari, rivoji va oqibatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 1916-yil qo'zg'oloni masalasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, Z.Choriyev [1], H.Tursunov [2], J.Ismoilova [3] kabi olimlar Turkiston hududidagi qo'zg'olonlarning umumiy xususiyatlarini tahlil qilganlar. Ushbu tadqiqotlarda qo'zg'olonning sabablari, geografik ko'lami va oqibatlari keng yoritilgan bo'lsa-da, Namangan hududidagi voqealar ayrim

hollarda yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Mazkur maqola aynan ushbu hududdagi voqealarni tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari va ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy-tarixiy, muammoviy-xronologik va tavsifiy metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Tarixdan ma'lumki, Nikolay II 1916-yil 25-iyunda "Imperiyadagi "yot" xalqlar (elatlar) erkak aholisini harakatdagi qo'shin hududida mudofaa inshootlari va harbiy inshoot-istehkomlar qurish, shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo'lgan har qanday ishlarga jalb etish to'g'risida"gi farmonni imzoladi [5].

Farmonga binoan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklar safarbar etilishi belgilandi. Nikolay II farmonida Astraxan guberniyasi, Sibirning Primore, Amur, Kamchatka va Saxalin viloyatlari hamda Kavkazortining musulmonlar

yashaydigan ikki viloyati qatori Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, Oqmola, Semipalatinsk, Yettisuv, Ural, To'rg'ay va Kaspiyorti viloyatlarida istiqomat qilayotgan "begona" aholini jalb etish ko'zda tutilgan edi. Turkiston o'lkasi Rossiyaga 250 ming ishchi kuchi yetkazib berishi kerak bo'lib, shundan 50 ming nafari Farg'ona viloyati zimmasiga yuklatilgan edi.

Mazkur farmon xalq ommasining manfaatlariga zid bo'ldi. Xilma-xil soliq va kamsitishlar natijasida ezilgan kambag'al aholining moddiy ahvoli yanada og'irlashdi. Xalq ommasi Birinchi jahon urushiga nisbatan nafrat bilan qaradi. Shu sababli front ortidagi harbiy ishlarga borishga deyarli hech kimda xohish bo'lmadi.

Ko'p yillardan buyon to'planib kelgan xalq noroziligi va g'azabi podshoning farmoni e'lon qilingan dastlabki kunlardan o'q keng ko'lamlil qo'zg'olonlonga sabab bo'ldi. Qo'zg'olon Farg'ona viloyatining besh uyezdi – Andijon, Qo'qon, Namangan, Skobelev va O'sh hududlarini qamrab oldi. Mustamlaka ma'murlarining to'liq bo'lmagan rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, Farg'ona viloyatida 107 ta joyda qo'zg'olon va g'alayonlar sodir bo'lgan [2].

Mardikorlikka qarshi qo'zg'olonlar Namangan uyezdida ham keng avj olib, dastlab 1916-yil 11-iyul kuni Namangan shahrida boshlandi. Mavjud manbalarga ko'ra, qo'zg'olon shaharning Kurashxona maydonida yuzaga kelgan. Ushbu qo'zg'olonlonga 3–4 ming nafar aholi jalb etilgan bo'lib, ular orasida o'g'lini yoki erini mardikorlikka olinishira qarshi chiqqan ayollar ham bo'lgan va ular olomonning oldingi saflarida faol ishtirok etgan.

Mazkur qo'zg'olonlongan avval erkak va ayollardan iborat aholi ertalab soat 7:00 da mardikorlikka olinuvchilar ro'yxatini talab qilib, Labaytog'a dahasi oqsoqolining uyiga borgan. Biroq oqsoqol norozi aholidan qo'rqib, qo'shnilarining hovlisi orqali yashirincha chiqib ketgan.

Bundan g'azabga to'lgan aholi o'z noroziliklarini bildirish maqsadida Kurashxona maydoniga to'plana boshladi. Soat 8:00 da qo'zg'olon boshlanib, erkak va ayollardan iborat olomon mardikorlikka tuzilgan ro'yxatni berishni hamda ro'yxat tuzishni to'xtatishni talab qildi.

Norozilik harakatlarini bostirish maqsadida kapitan Rumyantsev boshchiligidagi harbiylar yuborildi. Rumyantsevning aholini tinchlanishga chaqirishi va aks holda qurol ishlatilishi haqidagi tahdidlari ijobiy natija bermadi. Aksincha, qo'zg'olonchilar yanada g'azablanib, soldatlar va politsiya xodimlariga qarshi chiqib, ularning qurol-yarog'larini tortib olishga urindilar.

Natijada Rumyantsev miltiq va pulemyotlar bilan qurollangan askarlarga qo'zg'olonchilarga qarata o'q uzish haqida buyruq berdi. Ushbu otishma oqibatida halok bo'lgan va yaradorlar soni turli manbalarda turlicha keltiriladi: ayrim ma'lumotlarda 16 kishi halok bo'lib, 30 kishi yarador bo'lganligi qayd etilsa, boshqa manbalarda bu ko'rsatkich 50–60 kishiga yetgani ko'rsatiladi [3].

Qo'zg'olon qariyb 4 soat davom etgan. Chor hokimiyatining harbiy sud hujjatlariga ko'ra, Namangandagi qo'zg'olonning asosiy tashabbuskorlari mehnatkash omma vakillaridan iborat bo'lgan.

Yarador bo'lib, bir necha kundan so'ng vafot etganlar orasida Bositxon Soqiboyev, Ismoiljon Ibrohimboyev, Yo'ldoshboy Dadaboyev va boshqalar bor edi. Shuningdek, qo'zg'olonlonga yarador bo'lganlar qatorida Raimboy Yoqubboyev, Abduraim Zokirboyev va boshqa ishtirokchilar ham qayd etilgan. Namangan qo'zg'olonining faol qatnashchilaridan 84 kishi harbiy sud javobgarligiga tortilib, "aybdorlar" turli jazolarga mahkum etildi [2].

Yana shuni ta'kidlash joizki, qo'zg'olonchilar yarador va halok bo'lganlarni imkon qadar o'zlari bilan olib ketishga

harakat qilganlar. Bu holat qo'zg'olonlonga yarador va halok bo'lganlar sonini aniq belgilashga to'sqinlik qiladi. Ayni paytda, yuqorida qayd etilganidek, mazkur qo'zg'olonlonga ko'plab ayollar ham faol ishtirok etgan. Ular orasida yarador va halok bo'lgan ayollar ham bo'lgan. Masalan, Qozi Guzar mahallasida yashagan Umriniso Alixonboyeva yarador bo'lgan bo'lsa, halok bo'lganlar orasida Hurmatbibi Niyozboyeva ham qayd etiladi [3].

Namangan shahridagi mazkur qo'zg'olonning yanada avj olishida Ortiqboy Abdurasulov, Nuriddinchoji Maqsudhojiyev, Sharifxo'ja Otaboyev, Yoqubjon Abdurazzoqboyevlarning eski shahar bo'yab aholi orasida targ'ibot olib borishi, do'kondorlar o'rtasida xalqni Kurashxona maydoniga chorlab chiqishi hamda qo'zg'olonning oldingi saflarida faol ishtirok etishi muhim ahamiyat kasb etgan.

Namangan shahridagi qo'zg'olonning ertasi kuni, ya'ni 1916-yil 12-iyulda Farg'ona viloyati harbiy gubernatori A.I.Gippius shahardagi nufuzli shaxslarni yig'ib, majlis o'tkazdi. Mazkur yig'ilishda u Nikolay II farmonini qisman "yumshatish", xususan mardikorlikka umumiy ro'yxat tuzmaslik, vaziyatni keskinlashtirmaslik va noroziliklarni tinch yo'l bilan hal etish zarurligini ta'kidladi.

Biroq bu "yumshatish" siyosati uzoq davom etmadi. Rossiya ma'muriyati vakillarining fikricha, joylarda mardikorlik ro'yxatini to'xtatish hukumatning o'z qarorlarini qat'iyat bilan amalga oshira olmasligini ko'rsatishi va natijada podsho ma'muriyati obro'siga putur yetkazishi mumkin edi.

Qo'zg'olon kundan-kunga avj olayotganidan xavotirga tushgan rus ma'murlari aholini qo'rqitish, bosim o'tkazish va ayrim hollarda ayyorona usullardan foydalanishga kirishdilar. Jumladan, Farg'ona viloyati harbiy gubernatori A.I. Gippius mahalliy aholining diniy e'tiqodi va ruhoniylarning jamiyatdagi o'rini hisobga olib, 1916-yil 23-iyul kuni bir guruh amaldorlar bilan Namangan shahridagi Jome' masjidiga tashrif buyurdi.

Masjidda to'plangan 700–800 nafar aholiga murojaat qilib, u olomonning xavfli kuchga aylanishi mumkinligini, tartibsizliklar qonun tomonidan qat'iy jazolanishini ta'kidladi. Shuningdek, u Jizzax voqealarini misol qilib keltirib, qo'zg'olonchilar tomonidan sodir etilgan harakatlar oqibatida shahar vayron qilingani, aholi jazolanganini eslatdi. Bu orqali namanganliklarni ogohlantirish va qo'zg'olonning oldini olish maqsad qilingan edi.

Bundan tashqari, A.I.Gippius aholi ruhiyatiga ta'sir o'tkazish uchun diniy ko'rinishdagi usullardan ham foydalangan. U mahallaning obro'li 18 nafar vakilini huzuriga chaqirib, generallik formasini yechib, salla o'rab, chopon kiygan holda Qur'anni o'qib, uni o'pgan va yig'ilganlarga "men bu Kalom sharifni yaxshi ko'raman" deya murojaat qilgan [4]. "Endi menga ishondingizlarmi?" deya murojaat qiladi. "Ishonamiz", degan javoblar eshitilgach, u aholini aql bilan ish tutishga chaqiradi. Shuningdek, "sizlarning bu yerda yeringiz bor, uni saqlab qolish uchun kurashish lozim, aks holda boshqalar uni tortib olishi mumkin. Urush sizlardan uzoqda kechmoqda, ammo xudo ko'rsatmasin, agar dushman g'olib kelib Rossiyani yengsa, u sizlarning yerlaringizni egallaydi. Sizlarning yerga egaligingiz ruslar va hukumat tomonidan muhofaza qilinmoqda", deya ta'kidlaydi.

U yana mahalliy aholini qo'rqoqlikda ayblab, ularni harbiy xizmatga yaroqsiz deb baholaydi: "Sizlarni ham harbiy xizmatga olish mumkin edi, biroq sizlar qo'rqoqsizlar. Ikkita qaroqchi sizlarning oltita kishingizni yerga yot desa, yuzlaringiz bilan yerga yotasizlar. Bundaylar soldatlikka yaramaydi. Sizlar urushga odatlanmagan siz. Siz savdo qilishni, o'qitishni bilasiz, lekin urush paytida bularning ahamiyati yo'q. Siz ketmon bilan ishlashni bilasiz, shu bois front ortidagi

ishlarga foydangiz tegadi", deya o'zining "spektakl" tarzidagi chiqishini namoyish etadi.

Aslida esa "musulmon qiyofasi"ni namoyon etgan harbiy gubernator mahalliy aholining mustamlakachilarga bo'lgan nafrati va vatanparvarlik hissini yaxshi anglagan holda, ularni qo'rqoqlikda ayblab, harbiy xizmatga yaroqsiz ekanliklarini ta'kidlashga urinadi. Buning ortida esa mahalliy aholiga qurol berish oxir-oqibat mustamlakachilarning o'ziga xavf tug'dirishi mumkinligi haqidagi xavotir yotgan edi [3].

Farg'ona viloyati harbiy gubernatori A.I.Gippius 1916-yil 23-iyul kuni, ya'ni Namangandagi uchrashuvdan so'ng, Bosh shtab boshlig'iga telegramma yuboradi. Unda viloyat shaharlarida osoyishtalik va Rossiyaga nisbatan xayrixohlik kayfiyati mavjudligi ta'kidlanadi. Xususan, "Namanganda ruhoniylar va nufuzli kishilar bilan suhbatlashdim. Ularning ortida ko'plab oddiy fuqarolar turar edi. Katta qozi menga: 'Imperator farmoniga bo'ysunmaslik xalqning hayolida ham yo'q, buni imperatorga yetkazing', dedi. Biz 40 yildan buyon imperatorning sodiq fuqarolari sifatida yashab kelmoqdamiz va bundan keyin ham sodiq qolamiz. Qo'zg'olonlar farmonning xalq orasida yetarlicha tushuntirilmaganligi sababli yuzaga kelgan", deya bayon etiladi. Gippius esa: "Men bu so'zlarga ishonaman, chunki xalq mening nutqimni tinglab yig'ladi", deb yozadi [3].

Mazkur telegramma mazmunidan ko'rinadiki, vaziyat ma'lum darajada oldindan rejalashtirilgan va siyosiy jihatdan boshqarilgan. Jazo choralaridan qo'rqan ruhoniylar va mahalliy nufuzli shaxslar o'z xalqini og'ir jazolardan asrash maqsadida rus ma'murlari oldida murosa yo'lini tanlagan bo'lishi mumkin. Biroq shunga qaramay, qo'zg'olonlar joylarda davom etgan.

Qo'zg'olonlar butun Namangan uyezdi bo'ylab keng yoyildi. 1916-yil 12–13-iyul kunlari Olmos qishlog'ida mardikorlik ro'yxati tuzilayotganini eshitgan 500–600 nafar aholi "Qalandarxona" (ilgari shunday atalgan joy)ga to'plandi. Bu yerda politsiya va harbiylar bilan aholi o'rtasida keskin to'qnashuv yuz berib, natijada 7 kishi halok bo'ldi va bir necha kishi yarador bo'ldi [6].

Shunga o'xshash norozilik harakatlari uyezdning boshqa hududlarida ham kuzatildi. Qo'zg'olonchilar mahalliy bo'lim boshliqlaridan mardikorlikka safarbarlik ro'yxatlarini talab qilganlar. Masalan, 1916-yil 14-iyul kuni Chindovul qishlog'ida aholi bo'lim boshlig'idan ro'yxatni berishni talab qilib, "biz ishchi bermaymiz, ro'yxatni beringlar, bizdan soliq olishgani yetar, endi odamlarni ham olib ketmoqchi, biz bunga rozi emasmiz", deya norozilik bildirdi [1].

Shunga o'xshash voqealar Chodak qishlog'ida ham sodir bo'lib, bu yerda qo'zg'olonchilar bo'lim boshqaruvchisiga qarshi chiqib, ro'yxatni bekor qilishga erishgan. Xuddi shu kuni Qizilravot va Pop qishloqlarida ham xalq chiqishlari yuz berib, mardikorlik ro'yxatlari bekor qilingan [1].

1916-yil sentyabridan 1917-yil martigacha Turkiston o'lkasidan safarbar qilingan 123 305 nafar mardikordan 113

mingdan ortig'i Rossiyaga yuborildi. Turkistondan yuborilgan mardikorlar yoritilmagan, tashlandiq barak va saroylarga, yashash uchun zarur sharoitlar mavjud bo'lmagan yotoqxonalariga joylashtirildi.

Issiq o'lkadan sovuq hududlarga olib borilgan mardikorlar kiyim-kechakning yetishmasligi, yashash va mehnat sharoitlarining og'irligi tufayli katta qiyinchiliklarga duch kelgan. Ular turli kasalliklarga chalilib, sovuq urishi oqibatida ko'plab yo'qotishlarga uchragan. Aksariyat hollarda yetarli tibbiy yordam ko'rsatilmagan sababli bu holatlar o'lim bilan yakunlangan.

Bundan tashqari, oziq-ovqat bilan ta'minlash darajasi ham nihoyatda past bo'lgan. Mardikorlar kuniga 16–18 soatlab ishlashga majbur bo'lgan, bu esa ko'pincha ochiq havoda, 22–25 °C darajadagi sovuq sharoitda amalga oshirilgan. Bunday og'ir mehnat va yashash sharoitlari mardikorlar orasida norozilik kayfiyatining kuchayishiga olib kelgan.

1917-yil Fevral inqilobi natijasida podsho monarxiyasi ag'darilgach, muvaqqat hukumat "begona xalqlar"dan majburiy ravishda safarbar qilingan mardikorlarni o'z vatanlariga qaytarish to'g'risida 1917-yil 5-mayda qaror qabul qilishga majbur bo'ldi.

Mazkur qarorga ko'ra, omon qolgan mardikorlar 1917-yil may oyidan boshlab o'z yurtlariga qayta boshladilar. Jumladan, 1917-yil 16-may kuni Namangan vokzalida mardikorlarni tantanali kutib olish marosimi o'tkazildi. Shu munosabat bilan shaharda yirik miting tashkil etildi [7].

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi umumlashirilgan xulosalar chiqarildi:

Birinchidan, kirish qismida ta'kidlanganidek, 1916-yil qo'zg'oloni Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarning keskinlashuvi mahsuli bo'lib, u xalqning ozodlik va adolatga bo'lgan intilishining ifodasi sifatida namoyon bo'lgan.

Ikkinchidan, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, mazkur mavzu tarixshunoslikda yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, Namangan hududidagi voqealarning ayrim jihatlarini hali ham chuqur tadqiq etilishni talab qiladi. Bu esa hududiy tarixni yanada mukammal o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, tadqiqot metodologiyasi asosida olib borilgan tahlillar voqealarga xolis va tizimli yondashuv qo'llash orqali qo'zg'olonning sabab va oqibatlarini yanada aniqroq ochib berish imkonini berdi.

To'rtinchidan, tahlil va natijalar shuni ko'rsatdiki, qo'zg'olonning asosiy sababi majburiy mardikorlik siyosati bo'lib, bu xalq noroziligining keskin kuchayishiga olib kelgan. Namangan qo'zg'oloni qisqa vaqt ichida ommaviy tus olib, mustamlakachilik siyosatiga qarshi umumxalq harakatiga aylangan.

Beshinchidan, qo'zg'olonning bostirilishi og'ir oqibatlarga olib kelgan bo'lsa-da, u milliy ozodlik harakatlari tarixida muhim bosqich sifatida tarixda qolgan va keyingi davr siyosiy jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

ADABIYOTLAR

1. Чориев З. Туркестон Мардикорлари: Сафарбарлик ва унинг оқибатлари (1946-1977 йй). – Т.: Шарк, 1999.
2. Турсунов Х. Ўрта Осиё ва Қозоғистонда 1916-йил халқ кўзғолони. – Т.: Фан, 1987.
3. Исмаилова Ж. Фарғона водийсида миллий озодлик курашлари (1916-йил кўзғолони мисолида). – Т.: Ғофур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2003.
4. Ковалев. П.А. Ўзбекистонда 1916 йил кўзғолони. – Т.: "Қизил Ўзбекистон", "Правда Востока" ва "Ўзбекистони Сурх" бирлашган нашриёти, 1955.
5. Восстание 1916 года в Средней Азии Казахстане Сб-К документов. – М., 1960.
6. Тарих ва тақдир: Фарғона водийси тарихини тадқиқ этиш муаммолари // Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Наманган: 2000.
7. Қосимов И. Наманган тарихидан лавҳалар. – Т.: Фан, 1990.